



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

QO‘QON XONLIGI ME‘MORIY OBIDALARINING FOTOGRAF G. KRIVTSOV TOMONIDAN SURATGA OLINISHI

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
Qo‘qon universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida G. Krivtsov tomonidan Qo‘qon xonligi hududida amalga oshirilgan fotografik tadqiqotlar tahlil qilingan. Tadqiqotda fotografning Qo‘qon, Asaka va Andijon shaharlarida olib borgan faoliyati, Xudoyorxon va saroy amaldorlari bilan uchrashuvlari hamda xonlik me‘moriy obidalarining ilk fotografik tasvirlari yoritilgan. Shuningdek, Krivtsov tomonidan olingan suratlarining Turkiston albomi tarkibidan joy olishi, ushbu tasvirlarning Qo‘qon xonligi me‘morchiligi tarixini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyati va tarixiy obidalarining asl qiyofasini tiklashdagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon xonligi, G. Krivtsov, Turkiston albomi, fotografiya, me‘moriy obidalar, Xudoyorxon, Andijon saroyi, Asaka, madrasa, karvonsaroy, tarixiy fotografiyalar, me‘morchilik tarixi.

ФОТОСЪЁМКА АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА ФОТОГРАФОМ Г. КРИВЦОВЫМ

Абдуллаев Равшанжон Иномжон угли
Кокандский университет, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируются фотографические исследования, проведённые G. Krivtsov на территории Qo‘qon xonligi во второй половине XIX века. В исследовании освещаются деятельность фотографа в городах Коканд, Асака и Андижан, его встречи с Xudoyorxon и представителями ханского двора, а также первые фотографические изображения архитектурных памятников ханства. Кроме того, рассматривается включение фотографий Кривцова в состав Turkiston albomi, их научное значение в изучении архитектуры Кокандского ханства и роль в восстановлении первоначального облика исторических сооружений.

Ключевые слова: Кокандское ханство, Г. Кривцов, Туркестанский альбом, фотография, архитектурные памятники, Худоярхан, Андижанский дворец, Асака, медресе, караван-сарай, исторические фотографии, история архитектуры.

PHOTOGRAPHING THE ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE KOKAND KHANATE BY THE PHOTOGRAPHER G. KRIVTSOV

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
Kokand University, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article analyzes the photographic research conducted by G. Krivtsov in the territory of the Qo‘qon xonligi during the second half of the nineteenth century. The study highlights the photographer’s activities in the cities of Kokand, Asaka, and Andijan, his meetings with Xudoyorxon and court officials, as well as the earliest photographic images of the architectural monuments of the khanate. The article also examines the inclusion of Krivtsov’s photographs in the Turkiston albomi, their scholarly significance in the study of Kokand Khanate architecture, and their role in reconstructing the original appearance of historical buildings.

Keywords: Kokand Khanate, G. Krivtsov, Turkestan Album, photography, architectural monuments, Khudoyar Khan, Andijan palace, Asaka, madrasa, caravanserai, historical photographs, architectural history.

Qo‘qon xonligi me‘moriy merosini tadqiq etishda yozma tarixiy manbalar muhim o‘rin tutadi. Mazkur manbalarda saroylar, madrasalar va boshqa me‘moriy inshootlarning bunyodkorlari, qurilish jarayoniga boshchilik qilgan usta-hunarmandlar, binolarning tashqi va ichki tuzilishi hamda ularning bezak elementlari haqida turli darajadagi ma‘lumotlar uchraydi. Ayniqsa, xonlik davriga oid safarnomalar, tarixiy

asarlar va arxiv hujjatlari orqali me'moriy obidalarining qurilish uslubi hamda ularga xos san'at namunalarini qisman tiklash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, Qo'qon xonligi me'morchiligini o'rganishda faqat yozma tavsiflar bilan cheklanib qolish masalaning barcha jihatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Chunki ayrim hollarda manbalardagi tasvirlar subyektiv xarakterga ega bo'lib, muallifning shaxsiy kuzatuvlari yoki estetik qarashlari asosida shakllangan bo'ladi. Shu sababli me'moriy obidalarni bevosita tasviriy manbalar, xususan tarixiy fotografiyalar asosida tadqiq etish ilmiy jihatdan yanada muhim ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlariga oid fotografik materiallar me'moriy inshootlarning asl holatini, ularning hajmiy-kompozitsion yechimlarini, bezak unsurlarini hamda davr muhitini aniq aks ettirib beruvchi vizual manba vazifasini bajaradi. Ayniqsa, saroylar, masjidlar, ko'priklar va boshqa obidalarining suratlari orqali yozma manbalarda uchramaydigan ayrim detallarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Asosiy qism

Qo'qon xonligi me'moriy obidalarining ilk fotografik tasvirlari paydo bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston hududida fotografiya san'atining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, 1872-yilda Turkiston general-gubernatori Konstantin fon Kaufman tomonidan fotografik tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida G. Krivtsovning Qo'qon xonligiga yuborilishi bu boradagi dastlabki muhim qadamlardan biri bo'ldi.

G. Krivtsovning Qo'qon xonligi hududlari bo'ylab amalga oshirgan safari davomida olingan suratlar xonlikning me'moriy qiyofasini aks ettiruvchi ilk fotografik manbalar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. U o'z safari davomida Qo'qon, Marg'ilon, Asaka va boshqa shaharlardagi tarixiy inshootlarni suratga olib, ular haqidagi kuzatuvlarini qayd etgan. Shuningdek, uning Xudoyorxon bilan uchrashuvi, xon saroyi va boshqa me'moriy obidalar haqidagi ma'lumotlari "Turkestankiye vedomosti" gazetasi sahifalarida e'lon qilingan [1-2].

Krivtsovning qaydlariga ko'ra, Qo'qonga fotograf yuborish tashabbusi bevosita Xudoyorxon tomonidan ilgari surilgan edi. Xon Turkiston general-gubernatoriga murojaat qilib, xonlik hududlarida fotografik ishlarni tashkil etishni so'ragan.

G. Krivtsov Qo'qonga yetib kelgan paytda Xudoyorxon shaharda emas edi. Xon Asaka tomon yo'l olgan bo'lib, fotograf dastlab Qo'qon, so'ng Marg'ilon va Quva hududlarida bo'lib, keyinchalik xon istiqomat qilayotgan Asakaga yetib boradi hamda Xudoyorxon bilan uchrashadi.

Xon bilan bo'lgan dastlabki uchrashuv unchalik iliq ruhda kechmagan. Xudoyorxon dastlab shariat qoidalarini vaj qilib, insonlar va manzaralarni suratga olishga ehtiyotkorona munosabat bildirgan. Biroq oradan ko'p vaqt o'tmay, G. Krivtsov tomonidan tasvirga olingan dastlabki suratlarni ko'rgan xon fotografiya san'atiga katta qiziqish bilan qaray boshlaydi. Natijada u fotografga saroy ayonlari, qabulxona, saroy hovlisi hamda o'zi istiqomat qilayotgan qarorgohni tasvirga olishga ruxsat beradi [1].

Shu tariqa XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qon xonligi saroy hayoti va me'moriy obidalariga oid ilk fotografik tasvirlar yuzaga keladi. Ayniqsa, Andijondagi Qo'qon xoni o'rdasi va unga tutash inshootlarga oid suratlar xonlik me'morchiligini o'rganishda muhim vizual manba vazifasini bajaradi. Mazkur fotografiyalar orqali saroylarning tashqi ko'rinishi, hovli tuzilishi, qabul marosimlari o'tkazilgan joylar hamda saroy muhitiga oid ayrim jihatlarini aniqroq tasavvur qilish imkoniyati paydo bo'lgan.

Shuningdek, Asakadagi faoliyatidan so'ng G. Krivtsovning navbatdagi manzili Andijon shahri bo'ladi. Bu yerda u Nasriddinbek tomonidan bunyod etilayotgan saroy majmuasini ko'zdan kechiradi hamda uning tashqi ko'rinishi va ayrim me'moriy qismlarini fotografik tasvirga oladi. Krivtsovning qaydlariga ko'ra, hali qurilishi to'liq yakunlanmagan ushbu saroy Yevropa me'morchiligi unsurlarini mahalliy me'moriy an'analar bilan uyg'unlashtirgan yirik inshootlardan biri bo'lgan. Ayniqsa, saroyning bosh kirish qismi, ustunli galeriyalari va bezak elementlari fotograf e'tiborini tortgan [2].

G. Krivtsov tomonidan Qo'qon xonligining turli hududlarida tasvirga olingan fotografiyalar keyinchalik "Turkiston albomi" tarkibidan muhim o'rin egallaydi [3]. Mazkur albomga kiritilgan suratlar nafaqat Turkiston o'lkasining umumiy manzarasini aks ettirgan, balki Qo'qon xonligi me'moriy merosining XIX asrdagi haqiqiy qiyofasini saqlab qolgan noyob vizual manbalar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Albomning Qo'qon xonligiga oid qismida Qo'qon shahridagi Sulton Murodbek madrasasi va Muhammad Alixon madrasasi kabi me'moriy obidalar, poytaxt Qo'qondagi xon saroyi, shuningdek Asaka va Andijondagi saroy majmualari tasvirlangan. Bundan tashqari, Andijondagi yirik karvonsaroyning tashqi ko'rinishi, xonzoda saroyining darvozalari, hovli tuzilishi hamda ayrim ichki qismlariga oid suratlar ham albom tarkibidan joy olgan.

Krivtsov tomonidan yaratilgan ushbu fotografik materiallarning qimmatini shundaki, ular oddiy

tasvir emas, balki davrning me'moriy muhitini hujjatlashtirgan tarixiy manbalardir. Suratlarida binolarning peshtoq tuzilishi, gumbazlari, ayvonlari, ustunlari, darvoza bezaklari va hovli kompozitsiyasi kabi ko'plab me'moriy detallar aniq aks etgan. Ayniqsa, ayrim inshootlarning bugungi kungacha saqlanib qolmagani yoki keyingi davrlarda sezilarli darajada qayta qurilgani inobatga olinsa, Krivtsov suratlarida ularning dastlabki me'moriy qiyofasini tiklashda beqiyos ahamiyatga ega ekanligi ko'rinadi. Shuningdek, ushbu suratlar orqali Qo'qon xonligi me'morchiligida mahalliy an'anaviy uslublar bilan bir qatorda ayrim tashqi, xususan Rossiya va Yevropa me'moriy ta'sirlarining ham asta-sekin namoyon bo'la boshlaganini kuzatish mumkin. Xususan, Andijonda Nasriddinbek tomonidan qurdirilgan saroy tasvirlarida ustunli galeriyalar va Yevropa me'morchiligiga xos ayrim elementlarning qo'llanilgani buning yaqqol misolidir. Umuman olganda, G. Krivtsov tomonidan olingan fotografiyalar Qo'qon xonligi tarixiy me'morchiligini o'rganishda yozma manbalarni to'ldiruvchi, ayrim hollarda esa ularni aniqlashtiruvchi birlamchi vizual manba sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ular orqali XIX asr oxiridagi Qo'qon shaharlari, saroy muhiti va me'moriy obidalarining tarixiy qiyofasini yanada aniqroq tiklash imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, G. Krivtsov tomonidan amalga oshirilgan fotografik ishlar Qo'qon xonligi me'moriy merosini o'rganishda alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning tomonidan tasvirga olingan madrasa, saroy, karvonsaroy va boshqa me'moriy inshootlarga oid suratlar XIX asr ikkinchi yarmidagi xonlik shaharlari va ularning me'moriy qiyofasini aks ettiruvchi noyob vizual manbalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кривцов Г. Из Кокана // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 29.
2. Кривцов Г. Из Кокана // Туркестанские ведомости. – 1872. – № 30.
3. Туркестанский альбом. Т. 2. Часть этнографическая / сост. А.Л. Кун. – 1872.